

AMALIY MASHG'ULOTLARDA INTERFAOL TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

maktabgacha Ta'lim yo'nalishining

2-bosqich 201-guruh talabasi

Mamatoyeva Zilola Xayrullo qizi

Ilmiy rahbar: **Xo'jabekova Mukarramxon**

zmamatoyeva@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda interfaol ta'lim usullarining o'rni, mazmuni va imkoniyatlari keng yoritilgan. Interfaol yondashuv talabalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini faollashtirishi, mustaqil fikrlash, muloqot, jamoada ishlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlarni amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etish texnologiyasi, metodik talablar, o'qituvchi faoliyati va o'quvchi ishtirokining o'ziga xos jihatlarini misollar bilan batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, amaliy mashg'ulot, o'qitish metodlari, innovatsion yondashuv, guruhli ish, muammoli ta'lim, klaster, aqliy hujum, baholash mezonlari, refleksiya, kompetensiya, pedagogik texnologiya, talaba faolligi.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются роль, содержание и возможности интерактивных методов обучения в эффективной организации практического обучения. Научно анализируется роль интерактивного подхода в активизации процесса усвоения знаний студентами, формировании таких компетенций, как самостоятельность мышления, коммуникабельность, умение работать в команде и творческий подход. Также подробно и с примерами рассматриваются технология применения интерактивных методов на практическом

обучении, методические требования, особенности деятельности преподавателя и участия студентов.

Ключевые слова: интерактивное обучение, практическое обучение, методы обучения, инновационный подход, групповая работа, проблемное обучение, кластер, мозговой штурм, критерии оценки, рефлексия, компетентность, педагогическая технология, активность студентов.

Abstract: This article extensively discusses the role, content and capabilities of interactive teaching methods in the effective organization of practical training. The role of the interactive approach in activating the process of students' knowledge acquisition, the formation of such competencies as independent thinking, communication, teamwork and creative approach is scientifically analyzed. Also, the technology of applying interactive methods to practical training, methodological requirements, specific aspects of teacher activity and student participation are considered in detail with examples.

Keywords: interactive training, practical training, teaching methods, innovative approach, group work, problem-based learning, cluster, brainstorming, assessment criteria, competence, pedagogical technology, student activity.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol tushunchasi - pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir talabanning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagogik muloqot o'rnatish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Interfaol so'zi lotinchadan olingan bo'lib "inter"-o'zaro "akt" - muloqot degan ma'noni anglatadi. Interaktiv usullaridan foydalanishdan maqsad shuki darslarni qiziqarli, sermazmun, eng muhimi samarali qilib o'tkazishdir. Bunda talabanning bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va o'quv

jarayonining maxsuldorligi ko'payadi. Ma'lumki yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, o'ylab ko'rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarishi kerak.

Har bir ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi pedagoglar ta'lim jarayonini sifat va samaradorligini oshirish uchun o'z sohasini yaxshi bilishi bilan bir qatorda innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalanim holda o'qitish jarayonini tashkil etishi va unga amal qilishi shart. Ular hamda pedagogik kompetensiya ega bo'lishi kerak. O'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan faol o'qitish omillaridan foydalanish, yangi shakl-usullaridan va ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish, ta'lim oluvchini ishlashga chorlash, yuqori malakali o'qituvchi darajasini ko'tarishda hamda zamonaviy yondashuv asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish ta'lim berishning turli izlanishlar amalga oshirilmoqda.¹

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.²

Interfaol metod turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va oldindan tayyorgarlik ko'riladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llashdarsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol darslarda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklari talab etiladi va o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Quyida interfaol metodlardan bir nechta namuna ko'rishimiz mumkin.

¹Zarif Rayimkulovich Bobokulov, Sobir Toyirovich Sanayev, Xusnidin Holiqulovich Xonqulov Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Samarqand sh. Tong k., 3-b

“Kubik” grafik organayzeri³

Metod turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o‘rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o‘rganiladigan mavzu (muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha (yo‘nalish)lar mavjud. Metod mohiyatiga ko‘ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko‘rsatmalar o‘z ifodasini topadi: Izoh: “Kubikning olti qirrasidagi ko‘rsatmalar quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, uning nimaligini tasviriabbering! Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e’tibor qarating!

2. Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o‘xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

3. Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etayapti? Xayollaringizga erkbering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o‘xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

4. Tahlil qiling! Predmetning yasaliş (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasalişini bilishingiz shart emas, buni o‘ylab toping!).

5. Qo‘llang! Predmetdan siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?

6. Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalillar topishga harakat qiling! Metod o‘quvchi (talaba)larni muayyan muammo (mavzu)ni old tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo yechimini topishni tezlashtiradi.

Xulosa

Interfaol metodlar bir vaqtda bir nechta masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Asosiysi o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va

malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zarif Rayimkulovich Bobokulov, Sobir Toyirovich Sanayev, Xusniddin Holiqulovich Xonqulov Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Samarqand sh. Tong k., 3-b
2. <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D. Ro'ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova. - Toshkent: Ni2: omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 37 bet
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSONQADRIVABARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RN. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM DACHETELO'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOSIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOSIFATIDA". Educational Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.